

**JADID ADABIYOTIDA TILNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI**

Ro`zimurodova Sitara Maqsiddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo`nalishi

sitoraruzimurodova050@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid adiblar asarlarida kommunikativ-pragmatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor murojaat, undalma, so'roq, baholovchi birliklar va ta'sir ifodalovchi vositalarning badiiy matnda tutgan o'rni hamda ularning kommunikativ va pragmatik vazifalarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda jadid adabiyoti vakillari – Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari adiblar asarlaridan namunalar asosida tahlil olib boriladi. Ilmiy ish jarayonida jadid adiblar tilida uchraydigan kommunikativ-pragmatik birliklarning turlari va ularning ma'no, uslubiy hamda ta'sirchanlik jihatlarini tasniflash o'rganiladi. Natijada bunday birliklarning o'zbek badiiy matnining ifoda imkoniyatlarini boyitishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar

jadid adabiyoti, jadid adiblar, kommunikativ birliklar, pragmatik birliklar, murojaat, undalma, so'roq gaplar, baholovchi birliklar, ta'sir ifodalovchi vositalar, kommunikativ-pragmatik tahlil, nutq strategiyasi, ekspressivlik, muallif nutqi, badiiy matn, pragmatik ta'sirchanlik, milliy uyg'onish davri tili, uslubiy vositalar, til va madaniyat aloqadorligi, ma'no qatlamlari, badiiy pragmatika.

Kirish. XX asr boshlarida o'zbek milliy uyg'onish harakatining asosiy yo'nalishlaridan biri — jadidchilik bo'lib, u nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki til va adabiyot taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Jadid adiblar millatni ma'rifat, yangicha tafakkur, zamonaviy dunyoqarash sari yetaklashda so'zning kuchiga tayanib, o'z asarlarida ta'sirchan, ma'naviy yuklama va pragmatik maqsadga ega til vositalaridan keng foydalandilar. Ularning ijodida murojaatlar, undalmalar, so'roq va baholovchi birliklar, shuningdek, ta'sir ifodalovchi sintaktik va leksik vositalar orqali o'quvchiga bevosita murojaat qilish, ta'sir o'tkazish va milliy ongini shakllantirishga intilish seziladi.

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kommunikativ-pragmatik tahlil badiiy matnning ichki mohiyatini ochish, adibning kommunikativ niyatini anglash hamda til birliklarining ta'sirchanlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, jadid adiblar asarlaridagi kommunikativ-pragmatik birliklarni o'rganish, ularni

turlarga ajratish, ularning badiiy-estetik va ijtimoiy-ma'naviy yuklamasini tahlil qilish hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tilshunoslikning so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri kommunikativ-pragmatik lingvistika bo'lib, u til birliklarining faqat grammatik va semantik jihatlarini emas, balki nutq egasining maqsadi, tinglovchiga ta'siri, kommunikativ niyat va kontekst bilan bog'liqligini ham o'rganadi. Bu yo'nalish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon lingvistikasi doirasida shakllandi.

Pragmatika nazariyasining ilk asoschilari sifatida Ch. Morris, Ch. Pirs, J. L. Ostin, J. Searle, H. P. Grays kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish XX asr oxirlaridan boshlab rivojlana boshladi. A. Nurmonov, N. Mahmudov, M. Hakimov, D. Xudoyberganova, B. Mengliyev, S. Jo'rayeva kabi olimlar o'z tadqiqotlarida matn lingvistikasi, kommunikativ birliklar, nutq aktlari va pragmatik vositalar masalalarini chuqur o'rganganlar. Biroq, bu tadqiqotlarda jadid adiblar tili kommunikativ-pragmatik birliklar tizimi nuqtayi nazaridan maxsus tahlil etilmagan. Aynan murojaat, undalma, so'roq, baholovchi birliklar va ta'sir ifodalovchi vositalarning lingvopragmatik vazifalari, ularning adibning niyatini ifodalashdagi roli hamda o'quvchiga ta'sir mexanizmi hanuzgacha yetarli darajada yoritilmagan.

Shu jihatdan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy manbalarni boyitadi hamda jadid adabiyotining til xususiyatlarini zamonaviy kommunikativ-pragmatik nazariya asosida qayta talqin qilish imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqotning maqsadi – jadid adiblar asarlarida uchraydigan kommunikativ-pragmatik birliklarni aniqlash, ularni turlarga ajratish hamda ularning badiiy matn mazmunini shakllantirishdagi o'rni va funksiyalarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- jadid adiblar asarlarida murojaat, undalma, so'roq, baholovchi birliklarning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash;
- ta'sir ifodalovchi vositalarning pragmatik vazifasini ochib berish;
- kommunikativ-pragmatik birliklarning badiiy matn ta'sirchanligini oshirishdagi o'rnini tahlil qilish;
- ularni tizimlashtirish va tasniflash asosida umumiy xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti va obyekti. Tadqiqot obyekti- jadid adabiyotiga mansub yozma manbalar va adiblar (Fitrat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Hamza, Qodiriy va boshqalar) asarlarining matnlari. Tadqiqot predmeti- jadid adiblar asarlaridagi kommunikativ-pragmatik birliklar: murojaatlar, undalmalar, so'roq-gaplar, nutq ohanglari, baholovchi birliklar, til vositalarining muloqotdagi funksiyalari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Jadid adabiyotida pragmatik birliklarning tizimli lingvistik tahlili birinchi bor amalga oshiriladi;

Jadid adiblar tili kommunikativ niyat va muloqot strategiyasi nuqtai nazaridan o'rganiladi;

O'zbek badiiy tili tarixida jadid davri kommunikativ uslubi alohida bosqich sifatida asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. O'zbek tili lingvopragmatikasi va matnshunosligi uchun yangi ilmiy dalillar beradi;

Jadid adabiyotidagi tildan foydalanish uslubi tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida tahlil qilinadi;

Natijalar universitet darsliklari, o'quv qo'llanmalari va til madaniyati kurslarida qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdupattoyev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. – NDA. – Toshkent, 1998. – B. 23.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992
3. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand, 1913.
4. Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon o'g'li). Kecha va kunduz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1988.
5. Fitrat A. O'g'uzxon; Sayyohi hindi; Munozara; Tilimiz; Milliy til va adabiyot. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, turli yillar.
6. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
7. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. – Toshkent, 1994.
8. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini.: filol. fanlari dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 2001.
9. Hakimov M. O'zbek tili pragmatikasini o'rganish. – Farg'ona, 2011.
10. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Zaharli hayot; Boy ila xizmatchi; Yangi saodat. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
11. Hayitmetov A. O'zbek tilida gapning aktual bo'linishi va pozision masalalari. – Toshkent: Fan, 1984.
12. Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari.: filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Samarqand, 1993.
13. Jo'rayev N. Jadid adabiyoti va uning badiiy uslubi. – Toshkent: Fan, 2015.
14. Kenjebalina G.N. Lingvopragmatika. – Pavlodar, 2012.

15. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. // O'zbek tili va adabiyoti, 1985, 6-son.
16. Mamajonov A., Abdupattoyev M. O'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. – Farg'ona: Klassik, 2021.